

**Oliy ta'lif muassasalari talabalari o'rtasida  
“Yangi O'zbekiston yoshlarimiz” shiori ostida  
mini-futbol bo'yicha “Students Cup” musobaqasini  
o'tkazish tartibi to'g'risidagi  
NIZOM**

## I. Umumiy qoidalar

1.1. Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lif muassasalari talabalari o'rtasida "Yangi O'zbekiston yoshlarimiz" shiori ostida mini-futbol bo'yicha "Students Cup" musobaqasini (keyingi o'rinnlarda – Musobaqa deb yuritiladi) o'tkazish tartibini belgilaydi.

1.2. Musobaqa O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonda futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019-yil 4-dekabrdagi PF-5887-son Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yurish, yugurish, mini-futbol, badminton, stribol va "Workout" sport turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 5-noyabrdagi PQ-5282-son qaroriga asosan professional futbolni rivojlantirishning asosiy yo'naliishlari sifatida havaskorlar futbolini ommaviylashtirish, bu borada ta'lif muassasalari, mahalla va tashkilotlarda futbol bo'yicha musobaqalarni muntazam ravishda tashkil etish vazifasi ijrosini ta'minlash maqsadida tashkil etiladi.

1.3. Musobaqani o'tkazishdan asosiy maqsad yoshlarni jismonan sog'lom etib tarbiyalash, ularning qalbida sog'lom turmush tarziga bo'lgan munosabatni ijobjiy tomonga o'zgartirish, o'ziga ishonch, sportga muhabbat tuyg'ularini uyg'otish hamda bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tishini ta'minlash, yoshlarni sog'lomlashtirish uchun futbol o'yinlariga jalb etish ishlarini muvofiqlashtirish va yaqin hamkorlikni ta'minlash hisoblanadi.

## II. Musobaqani o'tkazishga rahbarlik qilish

2.1. Musobaqa o'tkazishni tashkiliy-texnik jihatdan ta'minlash Oliy va o'rtalik maxsus ta'lif vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi hamda O'zbekiston Professional futbol ligasi xodimlaridan iborat tarkibda tuzilgan Tashkiliy qo'mita tomonidan amalga oshiriladi.

2.2. Musobaqaning hududiy bosqichlarini o'tkazilishiga mazkur nizomning 1-ilovasiga muvofiq tashkil etilgan hududiy tashkiliy qo'mitasi bevosita mas'ul hisoblanadi.

2.3. Musobaqada O'zbekiston Professional futbol ligasi tomonidan jalb etilgan professional hakamlar jamoasi faoliyat olib boradi.

2.4. Musobaqa davomida vujudga kelgan har qanday nizoli vaziyatlar Tashkiliy qo'mita tomonidan ko'rib chiqiladi. Tashkiliy qo'mita tomonidan qabul qilingan qaror yakuniy kuchga ega va u muhokama qilinmaydi.

## III. Musobaqani o'tkazish tartibi, muddati va joyi

3.1. Musobaqa Tashkiliy qo'mita tomonidan tanlab olingan maydonlarda o'tkaziladi. Bu haqda oliy ta'lif muassasalariga qo'shimcha xabar beriladi.

3.2. Musobaqa 2022-yilning may oyida o'tkaziladi (uzrli sabablarga ko'ra, Tashkiliy qo'mita tomonidan musobaqaning muddatiga o'zgartirish kiritilishi mumkin).

3.3. Musobaqa ikki bosqichda tashkil etiladi. Birinchi bosqich hududlar kesimida o'tkazilib, Qoraqalpog'iston Respublikasi (g'olib), Toshkent shahri (dastlabki uch o'rinni) va 12 ta viloyat (har birining g'olibini) oliy ta'lif muassasalarini shu hudud g'olibligi uchun o'zaro kurash olib boradi. Ikkinci bosqichda barcha hududlar g'oliblari markazlashgan tarzda o'tkaziladigan final bosqichida g'oliblik uchun musobaqalashadi.

3.4. Musobaqada ishtirok etuvchi jamoalar sonidan kelib chiqib, har bir hudud uchun Musobaqaning birinchi bosqichi formati 4-ilovada ko'rsatib o'tilgan. Format ishtirokchi jamoalarga onlayn qur'a tashlash marosimi oldidan yanada aniqroq tushuntirib o'tiladi.

#### **IV. Musobaqada qatnashuvchi jamoalarni rasmiylashtirish tartibi**

4.1. Musobaqada ishtirok etuvchi oliy ta'lif muassasasi faqatgina shu o'quv yurtida kunduzgi ta'lif shaklida bakalavr bosqichida ta'lif olayotgan talabalarni Musobaqa uchun ro'yxatdan o'tkazadi.

4.2. Musobaqada ishtirok etuvchi jamoa oliy ta'lif muassasasi rektori tomonidan tasdiqlangan talabnomani (4.4-banddagi belgilangan hujjatlar bilan birga) Tashkiliy qo'mita(sports@edu.uz)ga 2022-yilning 30-aprel sanasiga qadar mazkur nizomning 2-ilovasidagi shaklda taqdim etishi lozim (belgilangan muddatdan kech yuborilgan talabnomalar inobatga olinmaydi).

4.3. Talabnomada musobaqada ishtirok etuvchi 15 nafar talaba, 1 nafar murabbiy hamda 1 nafar jamoa rahbari bo'lishi lozim. Bunda 15 nafar talaba futbolchi musobaqa davomida harakat qiluvchi futbolka raqami ko'rsatilishi va u musobaqa yakuniga qadar o'zgarmasligi talab etiladi.

4.4. Talabnomaga har bir talabaning tibbiy ko'rik xulosasi va pasport (ID kartasi) nusxasi va my.gov.uz yagona interaktiv davlat xizmatlari portalidan talabaning o'qish joyidan ma'lumotnomasi ilova qilinishi shart.

4.5. Talabnomaga Tashkiliy qo'mita tomonidan tasdiqlangach, jamoaning har bir a'zosi musobaqada ishtirok etish huquqini beruvchi litsenziya uchun suratga tushiriladi. Talaba mazkur litsenziyasiz musobaqada ishtirok etishga yo'l qo'yilmaydi. Taqdim etilgan litsenziya uchun jamoa bosh murabbiyi javobgar hisoblanadi.

#### **V. Musobaqada ishtirok etish shartlari**

5.1. Musobaqada ishtirok etuvchi jamoa o'z sport formasiga ega bo'lishi lozim. Har bir sport formasida sportchi raqami ko'rsatilishi va mazkur raqam uning litsenziya raqamiga mos bo'lishi kerak.

5.2. Musobaqalar "Futbol o'yini qoidalari" va FIFA uslubiy ko'rsatmasiga asosan o'tkaziladi.

5.3. Uchrashuvda har bir jamoadan 6 nafardan futbolchi harakat qiladi (1 nafar darvozabon va 5 nafar o'yinchisi). Futbolchilarni almashtirishlar soni cheklanmagan.

5.4. Jamoa uchrashuvni o'tkazish uchun mas'ul etib belgilangan komissar yordamida qaydnomani to'ldirganidan keyingina uchrashuvga qo'yiladi. Bunda qaydnomadan 15 nafargacha futbolchi joy olishi mumkin.

5.5. Uchrashuv davomiyligi har biri 20 daqiqadan iborat 2 taymni tashkil etadi. Taymlar orasidagi tanaffus 5 daqiqadan iborat bo'ladi.

5.6. Nizomning 5.5-bandida ko'rsatilgan vaqt orasida g'olib jamoani aniqlash imkonи bo'lmasa, u holda navbat penaltilar seriyasiga beriladi. Bunda 3 nafardan futbolchi belgilangan nuqtadan darvozaga zarba yo'llaydi. Ko'proq ochko olgan jamoa navbatdagi bosqichga yo'l oladi. 3 nafardan futbolchi zarba berganidan keyin ham g'olibni aniqlashning imkonи bo'lmasa, u holda jamoalar 1 ta xatoga qadar bellashuvni davom ettiradi. Penaltilar seriyasida qaydnomadan joy olgan barcha futbolchi ketma-ketlikda ishtirok etadi. Bunda ketma-ketlik aylanib kelmaguniga qadar bir futbolchining ikki bor zarba berishiga yo'l qo'yilmaydi.

Agar musobaqa formatida guruh bosqichi o'yinlari mavjud bo'lsa, u holda turnir jadvali quyidagi ketma-ketlikda shakllantiriladi:

- o'zaro uchrashuv(lar) natijasiga ko'ra;
- o'zaro uchrashuvlarda olingan ochkolar natijasiga ko'ra;
- o'zaro o'yinlarda urilgan va o'tkazib yuborilgan to'plar farqiga ko'ra;
- barcha uchrashuvlarda urilgan va o'tkazib yuborilgan to'plar farqiga ko'ra;
- barcha uchrashuvlarda urilgan to'plar soniga ko'ra;

- barcha uchrashuvlarda erishilgan g'abalalar soniga ko'ra;
- barcha uchrashuvlarda uchralgan mag'lubiyatlar sonining aks ta'siriga ko'ra.

Mazkur ketma-ketlikda ham barcha natijalar teng kelib qolsa, ogohlantirish va qizil kartochkalar soni nisbatan kamroq jamoa keyingi bosqichga yo'l oladi. Bunda birinchi navbatda chetlatishlar soniga va shundan keyingina ogohlantirishlarga e'tibor qaratiladi. Shundan keyin ham tenglik saqlab qolinsa, navbatdagi bosqichga yo'l oladigan jamoa nomiga alohida qur'a yordamida aniqlik kiritib olinadi.

Agar musobaqa formatiga ko'ra ikki raqib pley-off tariqasida ikki o'yinda maydonga tushishiga to'g'ri kelsa, g'olib jamoa yuqoridagi ketma-ketlik asosida aniqlab olinadi. Ikki o'yin natijasiga ko'ra tenglik yuzaga kelsa, g'olib penaltilar seriyasi orqali aniqlanadi.

**5.7. Jamoa uchrashuv startiga kamida 30 daqiqa vaqt qolguniga qadar Musobaqa o'tkazilayotgan majmuaga yetib kelishi lozim.**

**5.8. Musobaqada O'zbekiston Professional futbol ligasi hamda boshqa xorij futbol assotsiatsiyasidan so'nggi ikki yil ichida ro'yxatdan o'tgan professional futbolchi yoki futzalchining ishtirok etishiga yo'l qo'yilmaydi.** Mazkur tartibga rioya qilmagan oliy ta'lim muassasasining jamoasi musobaqadan chetlashtiriladi hamda jamoaning musobaqadagi natijalari bekor qilinadi.

**5.9. Musobaqaning final bosqichi oldidan jamoalar Tashkiliy qo'mitaga rasmiy talabnama kiritish hamda hududiy bosqich uchun ro'yxatdan o'tkazilgan 15 futbolchining ko'pi bilan 5 nafarini o'zgartirishga haqli.**

**5.10. Musobaqada ishtirok etish uchun litsenziya taqdim etilgach, uchrashuvdan avval jamoalarning raqib jamoa tarkibiga nisbatan shikoyat va e'tirozlari ko'rib chiqilmaydi.** Raqib jamoa tarkibidagi biror futbolchiga nisbatan e'tiroz o'yin startiga kamida 5 soat qolguniga qadar Tashkiliy qo'mitaga jamoa bosh murabbiyining imzosi bilan tasdiqlangan rasmiy ariza ko'rinishida kiritilishi kerak.

## **VI. Musobaqa ishtirokchilariga nisbatan qo'llaniladigan intizomiylar**

**6.1. Musobaqa davomida uchrashuv startidan 30 daqiqaga kechikkan jamoaga texnik mag'lubiyat yoziladi va u musobaqadan chetlashtiriladi.**

**6.2. Tashkiliy qo'mita tomonidan jamoa tarkibiga jamoa a'zosi bo'lмаган о'йнчанинг, шу жумладан, О'zbekiston Professional futbol ligasidan so'nggi ikki yil ichida ro'yxatdan o'tgan professional futbolchi yoki futzalchining kiritilganligi aniqlangan hollarda ushbu jamoa musobaqadan chetlashtiriladi.**

**6.3. O'yin davomida yoki undan keyin maydonдан chetlatilgan futbolchi (murabbiy) avtomatik ravishda bitta o'yinda qatnashmaydi.** Agar chetlatish futbolchiga xos bo'lмаган xatti-harakat oqibatida yuzaga kelsa, Tashkiliy qo'mita tomonidan mazkur futbolchini bir nechta uchrashuvga chetlatish chorasi ko'rildi.

**6.4. Nizomning 6.3-bandiga ko'ra qizil kartochka olgan futbolchi keyingi uchrashuv qaydnomasiga kiritilsa, mazkur jamoa musobaqadan chetlashtiriladi (jamoasiga quruh bosqichida ishtirok etayotgan bo'lsa, avvalgi natijalari 0 ga tenglashtiriladi).**

**6.5. Boshlang'ich tarkib futbolchilarining 3 nafariga qizil kartochka ko'rsatilsa, uchrashuv shu joyda yakuniga yetadi va jamoa musobaqadan chetlashtiriladi.**

**6.6. Musobaqaning hududiy bosqichida olingan sariq va qizil kartochkalar musobaqaning final bosqichida inobatga olinmaydi.**

## **VII. Shikoyat (protest) bildirish tartibi**

**7.1. Musobaqa bilan bog'liq barcha muammolar Tashkiliy qo'mita va bosh hakam tomonidan ko'rib chiqiladi va hal qilinadi.**

7.2. Jamoalarning uchrashuvni boshqarayotgan hakam qaroriga nisbatan e'tirozi qabul qilinmaydi.

7.3. Jamoalarning raqib jamoa qaydnomasi yoki tashkilotchilik bilan bog'liq masalalar yuzasidan e'tirozi uchrashuv startiga qadar qabul qilinadi va ko'rib chiqiladi. Uchrashuv yakunlangach jamoalarning bu boradagi e'tirozi qabul qilinmaydi.

### VIII. Jamoa rahbarlari, futbolchilar va hakamlar majburiyatları

8.1. Jamoa rahbarlari, o'yinchilar, hakamlar ushbu Nizom talablariiga amal qilishlari va yuqori tartib-intizom, tashkilotchilik, o'zaro hamda raqiblar, hakamlar va tomoshabinlarga hurmat bilan munosabatda bo'lishi lozim.

8.2. Jamoa rahbarlari hakamlar faoliyatiga aralashish huquqiga ega emas va o'z o'yinchilarining maydonda hamda undan tashqarida bo'lgan vaqtlaridagi xatti-harakatlariga javobgarlar va mas'uldir.

### IX. G'oliblarni aniqlash va taqdirlash

9.1. Musobaqaning hududiy bosqich g'oliblari kubok, shuningdek, final bosqichiga yo'llanma beruvchi diplom bilan taqdirlanadilar.

9.2 Musobaqaning final bosqichi g'olibi bo'lgan jamoaga championlik kubogi, 20 dona "oltin" medal hamda qimmatbaho sovg'alar taqdim etiladi.

9.3. Musobaqaning final bosqichida 2-3 o'rinnlarni qo'lga kiritgan jamoalarga mos ravishda 20 donadan "kumush" va "bronza" medallari hamda qimmatbaho sovg'alar taqdim etiladi.

9.4. Final bosqichidagi ishtirokiga ko'ra, Respublika Tashkiliy qo'mitasi tomonidan "Musobaqa to'purari", "Eng yaxshi futbolchi", "Eng yaxshi darvozabon", "Eng yaxshi murabbiy" nominatsiyalari bo'yicha g'oliblar aniqlanadi hamda taqdirlanadi.

9.5. Musobaqaning final bosqichi g'oliblari va sovrindorlariga mazkur nizomning 3-ilovasiga muvofiq sovrin (qimmatbaho sovg'a)lar ajratilishi ko'zda tutilgan.

### X. Musobaqalarni o'tkazish jarayonida jamoat tartibi va xavfsizligini saqlash

10.1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 29-iyuldagisi 205-son qarori talablari asosida, tadbirlar bilan bog'liq ob'ektlar va ularning atrof-hududida jamoat tartibni saqlash, jamoat xavfsizligini ta'minlash yuzasidan Ichki ishlar organlari, Milliy gvardiya va Sog'lioni saqlash muassasalari bilan o'zaro kelishuv asosida choratadbirlar amalga oshiriladi.

10.2. Musobaqani o'tkazish jarayonida Ichki ishlar vazirligi tomonidan sport majmuasiga ichki ishlar organlari, Milliy gvardiya xodimlarini, shuningdek, tibbiyot xodimlaridan iborat tez tibbiy yordam mashinalari navbatchiliginini tashkil etish choralar ko'rildi.

### XI. Moliyaviy xarajatlar va tashkiliy masalalar

11.1. Musobaqa tashkilotchilari tomonidan quyidagilar:

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi tomonidan jamoalarning tayyorgarlik jarayoni, musobaqa doirasida o'yinlar o'tkazilishi belgilangan sport majmualari bilan kelishish, ularning musobaqalardagi ishtiroki va xavfsizligini ta'minlash, shuningdek, musobaqaning 1-o'rin g'oliblarini qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlash, musobaqani OAV orqali keng yoritib borish;

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan musobaqalarni yuqori saviyada o'tkazish maqsadida jamoat tartibini saqlash va tez-tibbiy yordam ko'rsatish uchun shart-sharoitlar yaratilishini ta'minlash, shuningdek, hududiy bosqich g'oliblarini

Kubok bilan taqdirlash, O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi bilan birgalikda 2-o'rinni sovrindorlarini qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlash;

O'zbekiston Professional futbol ligasi tomonidan musobaqalarni yuqori saviyada hamkorlikda tashkillashtirish, hakamlar ishtirokini ta'minlash, ularning xizmatiga haq to'lash, musobaqani Toshkent shahri bo'yicha o'tkaziladigan birinchi bosqichini hamda final bosqichini yuqori saviyada tashkil etish, musobaqa doirasida o'yinlar o'tkazilishi belgilangan sport majmualari bilan kelishish va ularni bezatish, shuningdek, 3-o'rinni sovrindorlarini, nominatsiya sohiblarini qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlash, musobaqani OAV orqali keng yoritib borish;

O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi tomonidan musobaqaning hududlarda o'tkaziladigan bosqichlarini sport va tashkiliy-boshqaruv ishlarini amalga oshirish hamda o'tkazilishini muvofiqlashtirish;

Oliy ta'lif muassasalari tomonidan jamoalarni musobaqada yuqori saviyada ishtirokini ta'minlash, jamoalarning yo'l va ovqatlanish xarajatlarini qoplash, jamoalarni tayyorgarlik jarayoni, sport kiyimlari va anjomlari bilan ta'minlash bilan bog'liq barcha vazifalar amalga oshiriladi.

11.2. Tashkiliy qo'mita tomonidan musobaqa bilan bog'liq xarajatlar:

Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligining Oliy ta'lif muassasalarini rivojlantirish jamg'armasining mablag'lari;

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi, O'zbekiston Professional futbol ligasi tomonidan jalb etiladigan homiylarning xayriya mablag'lari va qonun hujjatlarida taqiqilanmagan boshqa manbalar;

oliy ta'lif muassasalarining budjetdan tashqari mablag'laridan ajratish hisobiga moliyalashtiriladi.

## XII. Yakuniy qoidalar

Tashkiliy qo'mita tomonidan musobaqa Nizomi va o'tkazish muddatlari va joylariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

## "Students' Cup" mini-futbol musobaqasining formati

Oliy ta'lif muassasalari talabalar o'rtasida "Yangi O'zbekiston yoshlarimiz" shiori ostida "Students' Cup" mini-futbol musobaqasining hududiy bosqichlari jamoalar sonidan kelib chiqib quyidagi tartibda belgilanadi.

### **Toshkent shahri uchun:**

42 ta OTM musobaqada ishtirok etadi.

I bosqichda 42 ta jamoa qur'a yordamida o'z raqiblarini bilib oladi va shu asosda 21 ta uchrashuv tashkil etiladi. G'olib jamoalar 1/16 final yo'llanmasini qo'lga kiritadi. Mag'lub jamoalar esa II bosqichda ishtirok etadi.

II bosqichda I bosqichda mag'lub bo'lgan 21 ta jamoa savatchaga joylanadi. Qur'a yordamida omadi kelgan 1 ta jamoa aniqlab olinadi va u to'g'ridan-to'g'ri 1/16 final chiptasiga ega chiqadi. Qolgan 20 ta jamoa esa 10 ta juftlikka ajratiladi. Juftliklarda mag'lub bo'lgan jamoalar musobaqa bilan xayrashadi, g'olib bo'lgan 10 ta jamoa 1/16 finalga yo'l oladi.

1/16 finaldan boshlab to finalga qadar jamoalar olimpiya tizimida musobaqada ishtirok etadi. Bunda mag'lub jamoalar musobaqa bilan xayrashadi. G'olib o'z navbatida navbatdagi bosqichga yo'l oladi. Barcha bosqich uchun alohida qur'a tashlab beriladi.

Bosqichlar ketma-ketlikda quyidagi sanalarda bo'lib o'tadi: 13, 14, 15, 17, 18, 20, 21-may.

### **Samarqand viloyati uchun:**

11 ta OTM musobaqada ishtirok etadi.

Bunda 11 ta jamoa qur'a yordamida 3 ta guruuhga ajratib olinadi. Mos ravishda A va B guruhlaridan 4 tadan jamoa, D guruhidan esa 3 ta jamoa o'rinni oladi. Guruhlarda barcha jamoalar o'zaro bir martadan maydonga tushadi.

Guruuh uchrashuvlari yakuniga ko'ra, A va B guruhida so'nggi o'rinni egallagan jamoalarning natijalari nolga tenglashtirib yuboriladi va har uch guruuhning 3 tadan jamoasi ishtirok etgan o'zaro o'yinlar natijasi hisobga olinadi. Yakunda, guruhlarda ikkinchi o'rinni egallagan uch jamoa ichidan eng yaxshi ko'rsatkichga ega bo'lgani Nizomning 5.6-bandis asosida hisoblanib, 1/2 finalga yo'l oladi. Shuningdek, guruuh g'oliblari ham yarim finalda ishtirok etadi.

Yarim final uchun alohida qur'a tashlanadi va shu yo'nalishda musobaqa g'olibini aniqlanadi.

### **Qoraqalpog'iston Respublikasi uchun:**

10 ta OTM musobaqada ishtirok etadi.

Bunda 10 ta jamoa qur'a yordamida 3 ta guruuhga ajratib olinadi. Mos ravishda A va B guruhlaridan 3 tadan jamoa, D guruhidan esa 4 ta jamoa o'rinni oladi. Guruhlarda barcha jamoalar o'zaro bir martadan maydonga tushadi.

Guruuh uchrashuvlari yakuniga ko'ra, D guruhida so'nggi o'rinni egallagan jamoalarning natijalari nolga tenglashtirib yuboriladi va har uch guruuhning 3 tadan jamoasi ishtirok etgan o'zaro o'yinlar natijasi hisobga olinadi. Yakunda, guruhlarda ikkinchi o'rinni egallagan uch jamoa ichidan eng yaxshi ko'rsatkichga ega bo'lgani Nizomning 5.6-bandis asosida hisoblanib, 1/2 finalga yo'l oladi. Shuningdek, guruuh g'oliblari ham yarim finalda ishtirok etadi.

Yarim final uchun alohida qur'a tashlanadi va shu yo'nalishda musobaqa g'olibi aniqlanadi.

#### **Sirdaryo va Navoiy viloyatlari uchun:**

2 ta OTM musobaqada ishtirok etadi.

Bunda jamoalar o'zaro ikki marta maydonga chiqadi. Ikki o'yin natijasiga ko'ra Nizomning 5.6-bandidan kelib chiqqan holda yaxshiroq ko'rsatkich qayd etgan jamoa respublika bosqichiga yo'l oladi.

#### **Toshkent va Farg'ona viloyatlari uchun:**

8 ta OTM musobaqada ishtirok etadi.

Bunda 8 ta jamoa qur'a yordamida 2 ta guruuhga ajratib olinadi. Guruhlarda barcha jamoalar o'zaro bir martadan maydonga tushadi. Guruhlarda dastlabki ikki o'rinni egallagan jamoalar Nizomning 5.6-bandi asosida aniqlab olinadi va ular 1/2 final chiptasiga ega chiqadi.

1/2 finalda o'z guruhida yetakchi bo'lgan jamoa qo'shni guruhning ikkinchi jamoasiga qarshi maydonga chiqadi. Musobaqa g'olibi shu yo'nalishda aniqlab olinadi.

#### **Andijon, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari uchun:**

6 ta OTM musobaqada ishtirok etadi.

Bunda 6 ta jamoa qur'a yordamida 2 ta guruuhga ajratib olinadi. Guruhlarda barcha jamoalar o'zaro bir martadan maydonga tushadi.

Guruuh uchrashuvlari yakuniga ko'ra har bir guruhning eng yaxshi ko'rsatkichga ega bo'lgani 2 tadan jamoasi Nizomning 5.6-bandi asosida hisoblanib, 1/2 finalga yo'l oladi.

1/2 finalda o'z guruhida yetakchi bo'lgan jamoa qo'shni guruhning ikkinchi jamoasiga qarshi maydonga chiqadi. Musobaqa g'olibi shu yo'nalishda aniqlab olinadi.

#### **Buxoro viloyati uchun:**

5 ta OTM musobaqada ishtirok etadi.

5 ta jamoa qur'a yordamida A va B guruhlariga ajratib olinadi. Bunda A guruhida 3 ta va B guruhida 2 ta jamoa ishtirok etadi. A guruhi jamoalari o'zaro bir martadan to'qnash keladi. B guruhdagi ikki jamoa o'zaro ikki bor maydonga tushadi. Har ikki guruuh g'oliblari Nizomning 5.6-bandi asosida aniqlanadi hamda finalda o'zaro to'qnash keladi.

#### **Jizzax viloyati uchun:**

4 ta OTM musobaqada ishtirok etadi.

4 ta jamoaning barchasi o'zaro bir martadan maydonga tushadi. Viloyat g'olibi Nizomning 5.6-bandiga asosan aniqlanadi.

#### **Namangan va Xorazm viloyatlari uchun:**

3 ta OTM musobaqada ishtirok etadi.

3 ta jamoaning barchasi o'zaro bir martadan maydonga tushadi. Viloyat g'olibi Nizomning 5.6-bandiga asosan aniqlanadi.